



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

ADABIYOT ORQALI YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Bekzod Ashurov

*NamDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Elektron pochta: bekzod.ashurov.1994@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotning yoshlar ma'naviyati va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Badiiy adabiyot insonning ruhiy olami, tafakkuri, estetik didi, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ma'naviy-tarbiyaviy vosita sifatida yoritiladi. Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, ezgulik, halollik, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda adabiy asarlarning imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy axborot makoni va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, badiiy adabiyotga qiziqishini kuchaytirish hamda adabiyotdan ma'naviy-tarbiyaviy jarayonda samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratiladi. Maqolada adabiyotning yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi tarbiyaviy imkoniyatlari yuzasidan ilmiy-nazariy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, yoshlar, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, kitobxonlik madaniyati, badiiy tafakkur, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy kamolot.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В статье анализируются роль и значение литературы в формировании духовности, нравственных ценностей и мировоззрения молодежи. Художественная литература рассматривается как важное духовно-нравственное и воспитательное средство, оказывающее значительное влияние на внутренний мир человека, его мышление, эстетические взгляды, нравственные ориентиры и жизненные ценности. Раскрываются возможности литературных произведений в воспитании молодого поколения в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, формировании таких качеств, как патриотизм, гуманизм, доброта, честность, справедливость и ответственность. Особое внимание уделяется повышению культуры чтения молодежи, развитию интереса к художественной литературе и эффективному использованию ее воспитательного потенциала в условиях развития цифровых технологий и современного информационного пространства. В статье представлены научно-теоретические положения о воспитательных возможностях литературы в процессе всестороннего развития личности молодого человека.

Ключевые слова: литература, молодежь, духовность, духовно-нравственное воспитание, нравственные ценности, культура чтения, художественное мышление, национальные ценности, общечеловеческие ценности, патриотизм, духовное развитие.

ISSUES OF SHAPING YOUTH SPIRITUALITY THROUGH LITERATURE

Abstract. This article analyzes the role and significance of literature in shaping the spiritual values, moral worldview, and personal development of young people. Fiction is considered an important spiritual, moral, and educational means that influences a person's inner world, thinking, aesthetic perception, moral orientations, and life values. The article explores the potential of literary works in educating the younger generation in the spirit of respect for national and universal human values and in developing such qualities as patriotism, humanism, kindness, honesty, justice, and responsibility. Particular attention is paid to improving young people's reading culture, increasing their interest in fiction, and effectively using the educational potential of literature in the context of the development of digital technologies and the modern information environment. The article presents theoretical and scientific perspectives on the educational potential of literature in the comprehensive development of the younger generation.

Keywords: literature, youth, spirituality, spiritual and moral education, moral values, reading culture, literary thinking, national values, universal human values, patriotism, spiritual development.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Shu o'rinda ulug' marifatparvar adib Abdulla Avloningning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan jumalari yodimizga tushadi.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Yurtimizda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-metodik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy kompetensiyalar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Jumladan, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, oliy ta'lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish, ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Bu boradagi ishlarni yanada mukammal amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", – deya ta'kidlangan muhim ko'rsatmasi ham, mamlakatda adabiyot, kitobxonlik va ma'naviy tarbiyaning nufuzini oshirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining oldida turgan muhim vazifalarni belgilab beradi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilish, jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni adabiyot orqali ilmiy asosda yo'lga qo'yish har bir professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalar ko'pligiga ishoradir.

METODOLOGIYA

O'zbekistonda uchinchi Renessans atamasiga katta urg'u berilmoqda. "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming

yillik teran ildizlaridan dalolat beradi" [1] – deydi Shavkat Mirziyoyev. Bundan tashqari davlatimiz rahbari buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlarini keltirib birinchi Renessans to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuz beragani, bu davrda Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimiz, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar yetishib chiqqani, O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab bergani, Bu davrda esa Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqqanligini alohida ta'kidlagan edi.

E'tibor bersak, Yurtboshimiz tomonidan yoshlarga juda katta e'tibor berilayotganligi, ilm ahllariga hurmat ko'rsatilayotganligi, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi va ularni tinch, farovon, osoyishta yashashiga harakat qilinayotganligining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar mana necha yillar bo'lganiga qaramay, hali hanuz xalqni boy ijodiy merosi bilan boqyapti, ularga ko'mak beryapti. Bugungi kunda ham olimlar, yoshlar va shu kabi bir qator ilm ixlosmandlari badiiy asarlarni chuqur o'rganib dissertatsiya, ilmiy maqola, monografiyalar yozib, ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu kabi tadqiqotlar natijasida turli xil mukofot, stipendiya hamda sovrinlar olishmoqda.

Badiiy asarlar ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlari o'z aksini topgan.

Hozirgi paytda internet tarmog'i kundalik ehtiyojga aylanib ulgurdi. Internet tarmog'ida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, ongda ma'naviy

bo'shliq yuz berishining oldini olishda adabiyotdan foydalanish, ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlaridan samarali, o'rinli foydalanishni o'rgatish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda Namangan davlat universiteti 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalariga tanlov fan sifatida "Adabiyot va ma'naviy tarbiya" fanining o'qitilayotgani ham shular jumlasidandir.

Ushbu fan muassasamizda 2020-yilda birinchi marta tanlov fan sifatida o'quv rejaga kiritildi. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish, badiiy asarlar orqali mutolaa madaniyatini kuchaytirish, badiiy asarlardagi ma'naviyat, tarbiyaga oid jihatlarni kengroq o'rganish va tahlil qilish, adabiyot orqali og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishlarida yuqoridagi jihatlarga e'tibor qaratish, ularda fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo'llash malakasini shakllantirishga qaratiladi. Shuningdek, talaba-yoshlarga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda qon-qonimizga singib ketgan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berish va ezgu g'oya asosida tarbiyalash g'oyat muhim masaladir. Zotan, bugun har bir yoshni muqaddas dinimizning ezgu g'oyalari asosida milliy qadriyatlar va keksa nuroniylarimizning pand-nasihati quvvati bilan tarbiyasiga e'tibor qaratishni dolzarb deb bilsak, ertangi kunda milliy ma'naviyatimizning mustahkamligi va yosh avlodning teran fikr va yuksak namunadagi tarbiya egasi sifatida komil inson bo'lib ulg'ayishidagi ishlarimiz o'z samarasini beradi.

MUHOKAMA

Adabiyot inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. U inson axloqi, madaniyati va dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni komil shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Adabiyotning inson ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilganda adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, adabiyot bilan milliy ma'naviyatning uzviy aloqadorligi, adabiyotda odob-axloq, ilm-ma'rifat va tarbiya

masalalarining talqini, buyuk allomalar va adiblarning adabiyot haqidagi fikr-mulohazalaridan namunalar keltirish, badiiy asarlar orqali inson ma'naviy ongini boyitish mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyati va tarbiyasiga oid qarashlarini, adabiyot va kitobxonlik borasidagi qarashlarini, 2019-yil mart oyida ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus"larini alohida ta'kidlash zarur. Bu orqali ko'pgina ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga jiddiy urg'u berilmoqda. Bu kabi tadbirlar albatta yoshlar tarbiyasi, ma'naviyatini yuksaltirishda o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Yusuf Xos Hojib o'z davrining zukko adabiyotshunosi va mutafakkiri sanaladi. "Qutadg'u bilig" dostoni turkiy yozma adabiyotning ilk adabiy namunasi hisoblanadi. Asardan odob-axloq masalalarini va tarbiyaviy jihatlarini atroflicha o'rganish mumkin. Asarning bir necha bobi bevosita axloq va odob masalalariga bag'ishlangan bo'lib, shunday boblarga "Til ardami" ("Til odobi") deb atalgan, yoshlarga o'qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so'zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik haqida ibratli o'gitlar beruvchi 7-bobni, uylanish va bola tarbiyasi, bolani yoshlik chog'idan boshlab yaxshi xulqli qilib yetishtirish zarurligi haqidagi 53-bobni, ziyofatlar va ularda ishtirok etish, o'zini tutish odobiga bag'ishlangan 55-56-boblarni misol sifatida keltirishimiz mumkin [2, 964-bet]. Asarda komil inson qiyofasi ham tasvirlangan.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari, hikmatlarida insoniy go'zallik, insonparvarlik, ma'naviy poklik, saxovat, diyonat, xolislik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik kabi go'zal axloqiy sifatlar tasvirlangan. Boqirg'oniy Sulaymon asarlarida esa inson kamoloti va ma'naviy yetukligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar yuritish mumkin. Ilm-u ma'rifatning so'nggi manzili haqiqat bo'lib, unga tahsil bilan erishgan kishi axloqiy poklikka va ma'naviy yetuklikka erishgan komil inson hisoblanadi, deb ta'kidlanadi. Mutafakkir ijodida ilgari surilgan insonparvarlik, barkamollik, insofli, diyonatli bo'lishga undovchi, inson ma'naviy-ruhiy pokligi

xususidagi mulohazalari yoshlarni axloqiy jihatdan yuksaltirish, ularda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari ham muhim ahamiyatga ega. "Hayrat ul-abror" dostonini axloqiy-ta'limiy va ma'rifiy-falsafiy doston sifatida o'rganiladi. Dostondagi maqolatlarning mushtarakligi va undagi inson tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Navoiy axloq haqida fikr yuritar ekan, yaramas odat hamda xulq-atvorni shafqatsiz qoralab, ezgu insoniy fazilatlarni yuksak qadrlaydi. "Mahbub ul-qulub"da Navoiy yozadi: "Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar va duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug'lar ko'nglig'a solur va ul muhabbat ko'ngulda muabbad qolur. Ushog'larni ko'zg'a ulug' qilur atvoridin xalq ulug'liq bilur" [3, 491-bet]. Ya'ni odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etib, bu duoning barakasidan yoshlar umrbod bahramand bo'ladilar. Odob – ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshlarga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadiga fe'l-atvor odobdir. "Mahbub ul-qulub" asarida shoirning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari ifodalangan.

O'zbek xalq maqollarida ham tarbiya va odob masalalarini ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina badiiy asarlarda o'zbek xalq maqollarini uchratamiz. Masalan, Abdulla Qahhor o'zining ko'pgina hikoyalarida maqollardan namunalar keltiradi. "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat" kabi hikoyalari shular jumlasidandir. Maqollar inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy ma'naviyat targ'ibini ham ko'rishimiz mumkin. Asardagi odob-axloq, tarbiya motivlari, adibning asardagi badiiy mahorati va davr ma'naviyatini asardagi obrazlar orqali yoritib bergan. Asarda qahramonlarning o'zaro muomala va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga guvoh bo'lamiz.

Tohir Malikning ijodiy merosi – tarbiya va axloq masalalari xazinasi hisoblanadi. Adib asarlarida: odob-axloq, ilm-ma’rifat, diniy-ma’naviy tarbiyani uchratamiz. Yuqoridagi fikrlarimiz yozuvchining “Odamiylik mulki” va “Vijdon uyg’onur” kabi asarlarida aks etgan.

Said Ahmadning “Kelinlar qo’zg’oloni” va “Xandon pista” asarlaridagi obrazlar orqali tarbiyaviy ta’sir qilish jihatlari, hajv va tarbiya uyg’unligi yozuvchining badiiy mahorati hisoblanadi.

Jadid ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shaxs erki, tarbiyasi va ma’rifati masalalari yoritilgan. Asardagi badiiy mukammallik va bugungi axloqiy jihatlarga mosligini asarning mazmun-mohiyati va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi orqali ko’rishimiz mumkin. Avloniy ushbu asarida axloq haqida “Insonlarni yaxshilikg’a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur...” [4, 5-bet] deb, ushbu misralarni keltiradi:

So’ylasang so’yla yaxshi so’zlardan,

Yo’qsa jim turmoqing erur yaxshi.

O’ylasang yaxshi fikrlar o’yla,

Yo’qsa gung bo’lmoqing erur yaxshi.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yo’qsa bekorlig’ing erur yaxshi. [5, 6-bet]

Yuqorida keltirgan adiblarimizning ijodiy merosi, qoldirgan asarlari “Adabiyot va ma’naviy tarbiya” fanimizning obyekti bo’lib xizmat qiladi.

“Adabiyot va ma’naviy tarbiya” fanini o’qitish O’zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg’usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish, talabalarni

uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish, talaba-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, adabiyot va kitobxonlik yo'nalishida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishga zamin yaratadi.

Ushbu fan mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, talabalarni mutolaa madaniyatini oshirish va adabiyot fani doirasida egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarining zaruriy me'yorini asoslab beradi. Talabalarning ixtisosliklari doirasida adabiyotni, ma'naviyatni tahlil qilgan holda yuksak salohiyatli, ma'rifatparvar va ma'naviyatli yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga erishish hamda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qiyoslay olish, ilmiy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

1. Pand-nasihat ruhidagi badiiy asarlar syujetida ma'naviy tarbiya bilan bog'liq jarayonlarni ahamiyatini o'rgatish.
2. Adabiyot va umumtarbiyaviy terminlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish.
3. Mavzularga oid nasriy va nazmiy asarlarni badiiy-estetik tahlil qilish.
4. Tafakkur qilish, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyati shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini bilish.
5. Ma'naviy tarbiyani adabiyot orqali mustahkamlash ko'nikmalarini shakllantirish.
6. Muayyan tarbiyaviy asarlar doirasida talabalarga zaruriy ma'naviy-axloqiy bilimlarni berishdan iborat.

XULOSA

Pand-nasihat ruhidagi asarlarni o'rganish yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish bilan dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, ajdodlarimiz qoldirgan va bugungi kunda yaratilayotgan boy adabiy merosni ma'naviy hamda tarbiyaviy jihatlarini o'rganish boy xazina bo'lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi, uni kitobxonlikka undaydi, badiiy asarni teran anglash va tahlil qila olish malakasini hosil qiladi. Talabalarda og'zaki va yozma muloqot yuritish, tahliliy fikrlash, ongli muhokama qilish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish masalalarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 1-oktabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig", Toshkent: "Fan", 1972. 964-bet.
3. Alisher Navoiy: To'la asarlar to'plami, 9-jild, 2012. 491-bet.
4. Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud axloq", Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 5-bet.
5. Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud axloq", Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 6-bet.